QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IKTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	



TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI

Mahmudova Chinora Anvar qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
"Buxgalteriya hisobi va marketing" kafedrası assistenti

Annotatsiya. ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati chuqur tahlil qilinadi. Jahon sanoatlari bilan taqqoslanib, mamlakatimizda mavjud afzalliklar va kamchiliklar aniqlanadi. Xalqaro standartlar, texnologik yangilanishlar, eksport va ichki bozor mahsuldorligi sohalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, rivojlanish strategiyalari va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, paxta ishlab chiqarish, tekstil sanoati, ishlab chiqarish samaradorligi, avtomatlashtirish, raqobatbardoshlik.

Abstract. this article provides an in-depth analysis of the current state of the textile industry of Uzbekistan. Comparison with world industries reveals the advantages and disadvantages of our country. International standards, technological innovations, export and domestic market productivity areas are considered. Development strategies and proposals are also put forward.

Key words: textile industry, cotton production, textile industry, production efficiency, automation, competitiveness.

Аннотация. в статье представлен углубленный анализ текущего состояния текстильной промышленности Узбекистана. Сравнение с мировыми отраслями промышленности выявляет преимущества и недостатки нашей страны. Рассматриваются международные стандарты, технологические инновации, направления продуктивности экспорта и внутреннего рынка. Также представлены стратегии и предложения по развитию.

Ключевые слова: текстильная промышленность, хлопководство, текстильная промышленность, эффективность производства, автоматизация, конкурентоспособность.

KIRISH

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mato va kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha bo'lgan zanjir mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda global raqobatshunoslik va yangi texnologiyalar asosida jahon to'qimachilik sanoatida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sanoatining xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini baholash zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To'qimachilik sanoati har doim O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib kelgan. Paxta yetishtirish va undan sifatli ip, mato ishlab chiqarish mamlakat iqtisodining eksport salohiyatini oshirishda katta o'rin tutadi. So'nggi yillarda sanoatning modernizatsiyasi va texnologik rivojlanishi tufayli sifat hamda ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada yaxshilandi. To'qimachilik sanoatining rivojlanishida paxta yetishtirishning o'rni beqiyos. O'zbekiston paxta ta'minotida mustaqil bo'lib, yillik hosili yuqori sifatli. Biroq, paxta hosilining barqarorligini ta'minlash va ekologik usullarni keng joriy etish zarur. Ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki [1], raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarmoq eksport salohiyatini oshirish borasida hukumatimiz tomonidan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi davrda korxonalarni rekonstruksiya qilmasdan,



zamonaviy ilg'or texnologiya bilan jihozlamasdan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilamasdan turib, ularning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin emas [2]. Ayniqsa, korxonalarni bozor iqtisodiyoti sharoitiga ko'nikishi, yangi texnologiyalarni qo'llash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, dunyo bozoriga mahsulotlarni olib chiqish ma'lum muddatga mo'ljallangan, ilmiy asoslangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. O'z navbatida bunday strategiyani ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, korxonalarning kuchli va zaif tomonlarini chuqurroq tahlil qilish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bo'yicha aniq amaliy takliflar va tavsiyalar tayyorlashni talab qiladi [3].

Aronov A.M., Bogomolov O.A., Vixanskiy O.S., Goremykin V.A., Yefremov V.S., Zub A.T., Kruglova N.O., Kruglov M.I., Trenyov N.N., Fatxutdinov R.A. kabi Rossiyalik tadqiqotchi olimlarning asarlarida ham strategik boshqaruvning nazariy va uslubiy masalalari tadqiq qilingan. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, strategik boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish, shuningdek yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., Boltaboev M.R., Yo'ldoshev N.Q., Maxmudov N.M., Nasirxodjaeva D.S., Shodmonova U.A., Ostonaqulova G.M., Karimova D.A., Yuldashev S.N., Xasandjanov K.K., Turapov R.A. va boshqa bir qator olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik sanoatida investitsiyalarni tartibga solish faoliyatini samarali boshqarish masalalariga tizimli yondashish, investitsiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy usullarini takomillashtirish asosida tarmoqqa investitsiyalarni jalb etish samaradorligini ta'minlaydigan va investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish shular jumlasidan. Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishida erishilayotgan ijobiy natijalar, shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida zamonaviy sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar turining ko'payib, ularning raqobatbardoshligi xalqaro bozorlardagi talabga muvofiqlashtirilib borilmoqda. Fikrimizcha, sanoat, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa sektorlariga innovatsion ishlanmalarni joriy etish borasida ijobiy natijalarga erishilayotganiga qaramasdan, kashf etish va ixtironi o'zlashtirish, uni tijoriylashtirish va yakuniy ilmiy hajmdor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini birlashtiradigan uzluksiz tizimni yanada izchil rivojlantirish zarur [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" va 2018- yil 21-sentyabrdagi "2019-2021 -yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va uning zamonaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayoni uning sub'ektlari iqtisodiy faoliyatining moddiy-texnika bazasini rivojlanish darajasiga bog'liqdir, chunki korxonalar resurs salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqarorlikka erishishning shart-sharoiti va asosiy omili hisoblanadi [5].


So'nggi yillarda to'qimachilik korxonalarida modern texnologiyalar joriy etilmoqda desak xato bo'lmaydi. Avtomatlashtirilgan fabrikalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, texnologik yangilanish ishchi kuchi mehnat unumdorligini orttiradi. O'zbek to'qimachilik mahsulotlari MDH va Yevropa bozorlarida yaxshi qabul qilinmoqda. Eksport hajmini oshirish uchun eksport salohiyatini kengaytirish, logistik infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro sertifikatlash tizimiga e'tibor qaratish zarur. Global bozordagi raqobatda mustahkam turish uchun sifat nazorati tizimlari rivojlantirilmoqda. Yetkazib berilayotgan mahsulot sifatining barqarorligi va zamonaviy standartlarga muvofiqligi sayyor iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshiradi [6]. Globalizm konsepsiyasi doirasida jahon iqtisodiyotini rivojlantirish imkoniyatlarining hozirgi ko'rinishda tugashi jahon iqtisodiyotining yangi modelga o'tishini oldindan belgilab beradi. Ushbu rejimning o'ziga xos xususiyati milliy manfaatlarni, birinchi navbatda, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishdir. Ushbu konsepsiya doirasida har bir mamlakat nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki ish o'rinlarini saqlab qolish va tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish asosida o'zining iqtisodiy va sanoat siyosatini shakllantirishga majbur bo'ladi [7]. Innovatsiyalar orqali diversifikatsiya va tuzilmaviy muammolarni hal qilish qulay biznes muhitini yaratish, bozor raqobatini kuchaytirish va firmalarni boshqa mamlakatlar yoki tarmoqlarda hayotiyli isbotlangan g'oyalar, biznes modellari va texnologiyalarni tizimli ravishda o'zlashtirish va moslashtirish uchun qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. To'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini o'z




vaqtda modernizatsiya qilish, texnologiyalarni yangilash hamda korxonalarning o'z va jalb qilingan mablag'lari hisobidan innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari yuzasidan bir qator vazifalar bajarilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda uskunani yangilashning o'rtacha darajasi yiliga 15-17 foizni tashkil qiladi, ya'ni ularning eskirish muddati 10 yildan ancha kam. Uskunalarni modernizatsiya qilishning past darajasi ishlab chiqarish quvvatlarining qisqarishiga ta'sir qiladi. Yangilanishdan maqsad xarajatlarni kamaytirish, sanoat korxonalarining rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. To'qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish texnologik bazasining eskirganligi mahsulot sotish hajmining kamayishiga va natijada bozor ulushini yo'qotishiga olib keladi. UNCTAD xalqaro tashkilotining "2021 yilda texnologiyalar va innovatsiyalar hisoboti"da qayd etilishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar unumdorlikni oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ish o'rinlarini yaratish uchun avtomatlashtirishni ongli ravishda moslashtirish va undan foydalanish kerak [8].

So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi oshdi, ammo ishlab chiqarishda samaradorlikni yanada oshirish talab etiladi. Resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda [9].

To'qimachilik tarmog'i ko'rsatkichlari: grafiklar va tahlil



1-rasm. Yiliga ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari hajmi (mln doll.).¹



2-rasm. Mahsulot hajmi, investitsiyalar, asosiy fondlar, bandlik va korxonalar soni ko'rsatkichlarining 2010-2023-yillar uchun taqqoslama tahlili.²

1 Milliy statistika qo'mitasi asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.

2 Milliy statistika qo'mitasi asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.



O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2023 yillar oralig'ida tarmoqda iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish salohiyati barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Mahsulot hajmining 2010-yildagi 4200 million AQSH dollaridan 2021-yilda 9323 million dollargacha ortishi ishlab chiqarish ko'lamining kengayib borayotganini ifodalaydi. 2022-yilda kuzatilgan qisqa muddatli pasayish (7234 million dollar) tashqi iqtisodiy omillar ta'siri bilan izohlanadi, biroq 2023-yilda hajmning 8200 million dollargacha tiklanishi tarmoqning barqarorlik salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur davrda investitsiyalar hajmining 17–18 baravar oshgani ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish imkonini yaratgan. Sarmoyaviy faollikning ortishi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy bazasini mustahkamlab, raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil bo'lgan. Investitsiya oqimlarining ko'payishi asosiy fondlar hajmining 95 foizga yaqin kengayishiga olib kelgan. Bu esa ishlab chiqarish infratuzilmasining yangilanib borishi, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil etilishi va ishlab chiqarish quvvatlarining sezilarli darajada oshganini bildiradi. Mazkur jarayonlar bandlik darajasining oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tarmoqda band bo'lganlar sonining 2010-yildagi 120 ming kishidan 2023-yilda 254 ming kishigacha ortishi sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirib, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini ko'paytirish imkonini bergan. Shu bilan bir qatorda, korxonalar sonining 5690 tadan 19200 tagacha ko'paygani kichik va o'rta biznes subyektlarining faollashganini, ishlab chiqarishda klasterlashuv va kooperatsiya jarayonlari jadallashganini ko'rsatadi. Natijada tarmoqda hududiy diversifikatsiya kuchaygan, ishlab chiqarish zanjirlarida o'zaro bog'liqlik ortgan hamda raqobatbardoshlik darajasi yaxshilangan. Umuman olganda, 2010–2023-yillar tahlili shuni anglatadiki, tarmoqda investitsion faollikning ortishi, asosiy fondlarning kengayishi, bandlik va korxonalar sonining o'sishi o'zaro uyg'un holda kechgan. Ushbu omillar ishlab chiqarish hajmining ortishiga, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarda ta'minlanishiga va tarmoqning umumiy samaradorligining oshishiga sabab bo'lgan. Natijalar investitsiyalar, ishlab chiqarish infratuzilmasi va bandlik o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois, kelgusida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun investitsiyalarning samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va inson kapitaliga yo'naltirilgan sarmoyalarni ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, investitsiyalar, asosiy fondlar va korxonalar sonidagi o'sish mahsulot hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, tarmoqning o'sish salohiyati yuqori. Siyosiy tavsiyalar: sarmoyalarni eksportga yo'naltirilgan loyihalarga ustuvor berish, yuqori

To'qimachilik sanoati korxonalarining o'ziga xos tashkiliy xususiyati shundaki, ishlab chiqarish jarayoni xom ashyodan tayyor mahsulotga aylanishgacha murakkab va qadamli texnologik bosqichlardan iborat. Har bir bosqich, ya'ni o'tim (transformatsiya), qurilma va mashinalarda bajariladigan jarayonlar tizimli ravishda bog'langan bo'lib, ularning samarasi butun ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini belgilaydi [10].

Shu sababli, korxona rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqishda, faqat alohida mashinaning yoki texnik vositalarning imkoniyatlariga emas, balki butun texnologik jarayonning uyg'unligi, integratsiyasi va maksimal samaradorligini ta'minlashga e'tibor qaratish talab etiladi. Bu yondashuv:

- Jarayonlarning moslashuvchanligini oshiradi, ya'ni yangi texnologiyalar kiritilganda butun tizimda o'zaro muvofiqlikni saqlaydi.

- Mehnat va resurs iste'molini optimallashtiradi, ishlab chiqarishning har bir bosqichida keraksiz chiqindilar va vaqt yo'qotilishini kamaytiradi.

- Mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi, chunki jarayonning bir bosqichidagi xatolik butun yakuniy mahsulotga ta'sir qilishi mumkin.

- Xarajatlarni boshqarish imkonini beradi, chunki jarayon samaradorligi yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish tannarxi pasayadi.

- Innovatsiyalarni kiritish va rivojlantirish uchun asos yaratadi, chunki texnologik jarayonning har bir qismi samaradorligi o'lchanadi va yaxshilanishi mumkin.

Shunday qilib, to'qimachilik korxonalarida raqobatbardosh va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun strategiya ishlab chiqishda butun texnologik jarayonni yaxlit va tizimli baholash, har bir bosqichning samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu korxonaning umumiy ishlab chiqarish quvvatidan maksimal samarani olishga yordam beradi.

To'qimachilik sanoatida ekologik masalalar muhim hisoblanadi, ayniqsa paxta yetishtirish va tozalash jarayonida. Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalar joriy etilmoqda. Sanoatning rivojlanishi malakali ishchi kuchiga bog'liq. Shu sababli, xodimlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari kengaytirilmoqda, bu esa mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish orqali to'qimachilik sanoatida boshqaruv samaradorligi oshmoqda. Smart-fabrikalar, IoT (Internet of Things) texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda innovatsiyalarga asoslangan yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish masalalarining keng ko'lamda hal etilishi, katta hajmdagi innovatsion faoliyatning ishlab chiqarishni



texnik va texnologik qayta jihozlash, lokalizatsiya va modernizatsiyalash davlat dasturlari asosida amalga oshirilishi, tarmoq fanlarini rivojlantirish, bojxona-tarif siyosatiga javob beradigan zaruriy me'yoriy-huquqiy aktlarning qabul qilinishi mahsulot sifatini yaxshilash, tovar bozorida korxonalarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham, innovatsion yo'l – O'zbekiston yengil sanoatini rivojlantirish faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash va uning raqobatbardoshligini oshirish, chet el kompaniyalari, ilmiy va injiniring markazlari bilan hamkorlik sohaslarini kengaytirishning samarali modeli uchun yagona yo'nalish bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotida va jahon mehnat taqsimoti bozorida yengil sanoatning o'rnini hamda imijini ko'tarish, tarmoqning investitsion va eksport jozibadorligini oshirish imkonini beradi. Bunda, fikrimizcha, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion loyihalarni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq: Birinchi yo'nalish - iste'mol xususiyatlari oshirilgan "aqlli to'qimachilik", narxi va sifati bo'yicha raqobatbardosh, xavfsizlik, ergonomik, gigiena talablariga mos keluvchi hamda inson faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratilishini ta'minlovchi mutlaqo yangi to'qimachilik mahsulotlari tayyorlash uchun nanotexnologiyalardan foydalangan holda, yangi material va birikmalar ishlab chiqarish. Ikkinchi yo'nalish - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, marketing tadqiqotlari va moliyaviy menejmentni rivojlantirish, korxonalarning biznes-rejalari hamda biznes g'oyalarini ishlab chiqish, sanoatni tarkibiy qayta qurish dasturlarini ishlab chiqib amalga oshirish innovatsion tizimini yaratish. Uchinchi yo'nalish - material va mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish, ularning xavfsizligi hamda foydalanish xususiyatlarini baholash usul va mezonlarini yaratish, shu jumladan, xalqaro standartlar, patentlar, tovar belgilarini hisobga olgan holda mamlakatimiz va xalqaro standartlar uyg'unlashuvini ta'minlovchi normativ-texnik hujjatlar ishlab chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik sanoati korxonalarining o'ziga xos tashkiliy xususiyatlaridan biri mehnat buyumlarini xom ashyodan tayyor mahsulotga aylanishida mo'ljallangan texnologik jarayon bo'yicha, mo'ljallangan o'timlarda, mashinalarda qayta ishlanishi shart ekanligi, shu sababli korxona rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda alohida joriy etilayotgan mashinaning emas, balki butun texnologik jarayonning samaradorligini aniqlash taqozo etiladi. O'zbekiston to'qimachilik sanoati katta salohiyatga ega bo'lsa-da, jahon sanoati bilan taqqoslaganda texnologik va marketing jihatdan orqada qolmoqda. Yangi avtomatlashtirish, ekologik toza ishlab chiqarish hamda sifatni oshirish uchun investitsiyalar zarur. Barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga e'tibor qaratish mamlakat sanoatini global miqyosda raqobatbardosh qiladi. Shuningdek, raqamli savdo va brend yaratish sohasida bilim va malakani oshirish kerak. Ushbu jarayonlarda davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vafoeva, D. (2023). O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalari kuchli va zaif jihatlarining tahlili. *Economics and Innovative Technologies*, 11(2), 129-138.
2. Normuminovich, Y. S., Payziyevna, A. F., & Azimdjanoyna, A. N. (2021). Analysis of the effectiveness of the textile industry. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12), 1587-1597.
3. Gulasal, M. (2022). Directions of using investment-innovative opportunities in increasing resource economy in textile enterprises of Uzbekistan. *Conference*, 6(6), 5-13.
4. Anand, M. (2014). A study of financial analysis in textile sector. *Journal of Business Management & Social Sciences Research*, 3(6), 80-86.
5. Xasanova, R. (2020). Metodicheskie aspekty opredeleniya effektivnosti upravlencheskogo segmentnogo ucheta i otchetnosti v xlopkovo-tekstilnykh klasterax. *Ekonomika i innovatsionnye tekhnologii*, (5), 66-72.
6. Muminova, E. A. To'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion-investitsion faoliyatni boshqarish yo'nalishlari.
7. Maxmudov, A. N. (2024). To'qimachilik va tikuv trikotaj korxonalarida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirish. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(01), 311-321.
8. Pelzman, J. (1982). The Textile Industry. *The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science*, 460(1), 92-100.
9. Khasanovna, A. S. (2021). Analysis of the current state of the textile industry of Uzbekistan. *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 217-222.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
